

AKSIYADORLIK JAMIYATINING BOSHQARUV TIZIMIDAGI DIREKTORLAR KENGASHINING O'RNI

Abduvaxobov Jahongir

TDIU "Menejment fakulteti" KB 61 guruh talabasi

www.jahongirabduvaxobov19@gmail.com

Ibragimov G'anijon G'ayratovich

*Ilmiy rahbar : Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish
markaziboshlig'I -Innovatsion Menejment kafedrası dotsenti Phd,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, g.ibragimov@tsue.uz*

INTRODUCTION: *Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvning muhim shakli bo'lib, unda direktorlar kengashi aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, nazorat va strategik qarorlar qabul qilishda markaziy rol o'ynaydi. Direktorlar kengashining samarali faoliyati korporativ boshqaruv tamoyillarini – shaffoflik, javobgarlik, hisobdorlik va tenglikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotning dolzarbligi O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini modernizatsiya qilish jarayonida kuzatuv kengashining samaradorligini oshirish zarurati bilan belgilanadi.*

Key words: *Qimmatli qog'ozlar, Fond birjasi, Board of directors, Supervisory Board, monapoliya, check and balance, Anglo-sakson, Enron, Sarbanes-Oxley, Monistik, Dualist, Gibrid, Dieselgate,*

Methods. Mazkur tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, taqqoslash va amaliy keys-stadi usullaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy tahlil – O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek "Korporativ boshqaruv kodeksi" asosida direktorlar kengashining huquqiy maqomi, vakolatlari va mas'uliyati o'rganildi. Taqqoslash metodi – O'zbekiston amaliyoti xalqaro tajriba bilan solishtirildi. Jumladan, Anglo-sakson modelidagi (AQSh, Buyuk Britaniya) "Board of Directors" tizimi va Germaniya kabi mamlakatlardagi ikki palatali (dualist) model tahlil qilindi. Bu orqali direktorlar kengashining nazorat va strategik qarorlar qabul qilishdagi farqlari ochib berildi. Amaliy keys-stadi (case study) – Enron Corporation (AQSh) misolida direktorlar kengashi faoliyatining zaiflashishi qanday oqibatlarga olib kelishi o'rganildi. Ushbu tajriba orqali mustaqil direktorlarning ahamiyati, audit qo'mitalarining faoliyati va shaffoflik mexanizmlarining zarurligi aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv – Aksiyadorlik jamiyatining uch bosqichli boshqaruv tizimi (aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, direktorlar kengashi va ijro organi) o'zaro aloqadorlikda tahlil qilindi. Direktorlar kengashining bu tizimdagi o'rni va funksional vazifalari aniqlashtirildi. Statistik va huquqiy-amaliy tahlil – Kapital bozorini rivojlantirish agentligi hamda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlaridan foydalanilib, direktorlar kengashiga nisbatan qo'llaniladigan talablar, majburiyatlar va jazo choralarining samaradorligi baholandi.

Results . O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati va ularning boshqaruv tizimi bir qator qonunlar hamda normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tadbirkorlik erkinligi, mulk huquqi va fuqarolarning iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqlarini kafolatlaydi. Ushbu konstitutsiyaviy asos aksiyadorlik jamiyatlarining ham huquqiy poydevorini tashkil etadi. Aksiyadorlik jamiyatlari uchun asosiy huquqiy hujjat — "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun⁷⁵ hisoblanadi. U dastlab 1996-yil 26-aprelda 223-I-son bilan qabul qilingan, so'ngra bir necha marta yangilangan. 2014-yil 6-mayda O'RQ-370-son qonun bilan yangi tahriri qabul qilingan. Ushbu hujjat aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, ularning boshqaruvi, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish va jamiyat faoliyatini tugatish tartibini belgilaydi. Shuningdek, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-387-son, 2015-yil 3-iyul) aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar muomalasini, emitentlar, investorlar va boshqa bozor ishtirokchilari faoliyatini tartibga soladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida 2015-yil 31-dekabrda "Korporativ boshqaruv kodeksi"⁷⁶ tasdiqlangan (9-son bayonnoma). Bu hujjat majburiy emas, balki tavsiya etiluvchi qo'llanma bo'lib, unda shaffoflik, hisobdorlik, javobgarlik va tenglik tamoyillarini joriy qilish bo'yicha ko'rsatmalar mavjud. Bank sohasida faoliyat yurituvchi aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa maxsus qonun amal qiladi. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun dastlab 1996-yil 25-aprelda 216-I-son bilan qabul qilingan⁷⁷, keyinchalik yangilangan va hozirda 2019-yil 5-noyabrda qabul qilingan yangi tahrir (O'RQ-580-son) amalda. Ushbu qonun banklarning tashkil etilishi, boshqaruvi, litsenziyalash va nazorat tartibini belgilaydi. Sug'urta kompaniyalari shaklidagi aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun amal qiladi. Bundan tashqari, Fuqarolik kodeksi aksiyadorlik jamiyatlarining huquqiy maqomini, ularning umumiy faoliyat tamoyillarini belgilab beradi. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining faoliyati esa qo'shimcha ravishda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-701-son, 2021-yil 14-iyul) asosida tartibga solinadi. Shuningdek, O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini bevosita nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi organ sifatida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi hamda Markaziy bankning qarorlari va me'yoriy hujjatlari muhim ahamiyatga ega.

Regulyator	Asosiy vakolatlari
Kapital bozorini rivojlantirish agentligi (KBRA)	- Qimmatli qog'ozlar emissiyasini ro'yxatdan o'tkazish - Emitentlarning moliyaviy hisobotlarini nazorat qilish - Korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya etilishini tekshirish - Qonun buzilishida ogohlantirish, jarima va faoliyatni cheklash choralarini qo'llash

⁷⁵ <https://lex.uz/docs/-2382409>

⁷⁶ <https://lex.uz/docs/-5930126>

⁷⁷ <https://lex.uz/acts/-2681>

Regulyator	Asosiy vakolatlari
Markaziy bank	- Tijorat banklari uchun litsenziya berish va uni bekor qilish - Banklarning moliyaviy barqarorligini nazorat qilish - Kapital va likvidlik bo'yicha minimal talablarni belgilash - Bank tizimida aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish
Fond birjalari (masalan, Toshkent Respublika fond birjasi)	- Aksiyalar va obligatsiyalar savdosini tashkil etish - Investorlar va emitentlar uchun shaffof muhit yaratish - Kotirovkalarni yuritish va e'lon qilish - Bozor manipulyatsiyalarining oldini olish
Davlat soliq qo'mitasi	- Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarini nazorat qilish - Soliq majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash - Dividendlar bo'yicha soliqlarni undirish
Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi	- Yirik jamiyatlarning qo'shilishi va birlashishini nazorat qilish - Monopol holatlarni suiiste'mol qilishni oldini olish - Raqobatni muhofaza qilish
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	- Davlat ulushi mavjud jamiyatlarda davlat manfaatlarini ifodalash - Davlat aksiyalarini sotish yoki ulardan samarali foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimi odatda uch bosqichli tuzilishga ega bo'lib, bu tizim "checks and balances" – nazorat va muvozanat tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni, jamiyatda oliy boshqaruv, nazorat organi va ijro organi bir-birini to'ldiradi hamda vakolatlarning haddan tashqari bir qo'lda jamlanib qolishini oldini oladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi. Bu jamiyatning oliy boshqaruv organi bo'lib, u jamiyat faoliyatining eng muhim masalalari yuzasidan qaror qabul qiladi. Jumladan, direktorlar kengashini saylaydi, yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlaydi, dividendlar bo'yicha qarorlar chiqaradi, jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish masalasini hal qiladi hamda auditorni tayinlaydi. Odatda umumiy yig'ilish yilda kamida bir marta o'tkaziladi. Direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi). Bu organ aksiyadorlar tomonidan uch yil muddatga saylanadi va jamiyatning strategik boshqaruvini amalga oshiradi.

Direktorlar kengashi jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi, ijro organini tayinlaydi va uning faoliyatini nazorat qiladi, risklarni boshqaradi hamda yirik moliyaviy bitimlarni ko'rib chiqadi. Kengash qoshida odatda audit qo'mitasi, kadrlar va mukofotlash qo'mitasi, strategik rivojlanish qo'mitasi va risklarni boshqarish qo'mitasi tuziladi. Yirik kompaniyalarda esa qo'shimcha ravishda etika, barqaror rivojlanish va korporativ boshqaruvni baholash qo'mitalari ham faoliyat yuritishi mumkin.

Direktorlar kengashi muntazam ravishda — odatda har chorakda yig'ilish o'tkazadi. Ijro etuvchi organ. U yakka tartibdagi direktor yoki jamoaviy boshqaruv shaklida tashkil etilishi mumkin. Ijro organi jamiyatning kundalik operatsion faoliyatini amalga oshiradi: ishlab chiqarish va moliyaviy rejalashtirish, shartnomalar tuzish, kadrlar siyosati va xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadi.

Shuningdek, ijro organi direktorlar kengashi oldida muntazam Aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi jamiyatning boshqaruv tizimida markaziy o'rin tutadi. U aksiyadorlar tomonidan saylanadigan va ularning manfaatlarini ifodalovchi strategik

organ hisoblanadi. Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatini samarali, shaffof va barqaror boshqarishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. sobot beradi. Birinchidan, kuzatuv kengashi aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qiladi. U jamiyat sarmoyasining qanday boshqarilishini nazorat qilib, qarorlar aksiyadorlar foydasiga xizmat qilishini ta'minlaydi. Bu orqali aksiyadorlarning jamiyatga bo'lgan ishonchi ortadi. Ikkinchidan, kuzatuv kengashi boshqaruv tizimida nazorat va muvozanat tamoyilini ta'minlaydi. Kundalik faoliyat bilan shug'ullanuvchi direktor yoki boshqaruv raisi kengash oldida hisobdor bo'ladi.

Shu tariqa, barcha vakolatlarning bir qo'lda to'planib qolishi va ularning suiiste'mol qilinishi oldi olinadi. Uchinchidan, kuzatuv kengashi jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilaydi. Investitsiya siyosati, risklarni boshqarish, yirik bitimlar va boshqa muhim qarorlar aynan kuzatuv kengashida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kengash moliyaviy hisobotlarning shaffofligini nazorat qiladi va tashqi auditorni tayinlaydi.

Kuzatuv kengashi faoliyatining zaifligi aksiyadorlik jamiyati uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Xalqaro amaliyot, xususan Enron Corporation misolida ko'ringanidek, nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi moliyaviy manipulyatsiyalar va korporativ inqirozlarni keltirib chiqaradi. Shu bois mustaqil direktorlar ishtirokini ta'minlash, audit qo'mitalarini kuchaytirish va korporativ boshqaruv tamoyillarini amalda qo'llash muhim hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatini nazorat qilish va strategik qarorlar qabul qilishda markaziy o'rin tutadi. Agar bu organ o'z vazifasini to'laqonli bajarmasa, jamiyatning boshqaruv tizimi izdan chiqishi va bir qator salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. korporativ boshqaruv tamoyillari buziladi. Kuzatuv kengashi nazorati bo'lmasa, barcha vakolatlar ijro organi qo'lida to'planib qoladi.

Bu esa "nazorat va muvozanat" tamoyilining buzilishiga, vakolatlarning suiiste'mol qilinishiga zamin yaratadi. aksiyadorlar manfaatlarini himoyasiz qoladi. Direktorlar kengashi bo'lmasa yoki faoliyatini yetarli darajada olib bormasa, jamiyat rahbariyati qarorlarni o'z manfaatlarini yoki ayrim guruhlarining foydasi yo'lida qabul qilishi mumkin. moliyaviy hisobot va audit sifati pasayadi. Kuzatuv kengashida faol audit qo'mitasi bo'lmasa, moliyaviy hisobotlarda xatoliklar, yashirilgan zararlar yoki sun'iy daromad ko'rsatkichlari paydo bo'lishi mumkin. investorlar va hamkorlarning ishonchi pasayadi. Shaffoflik va javobgarlik yetarli darajada ta'minlanmasa, investorlar kapitalni olib chiqib ketadi yoki yangi investitsiya kiritishdan tiyiladi. regulyator tomonidan chora-tadbirlar qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, kuzatuv kengashining mavjudligi va faoliyati majburiy hisoblanadi. Agar kengash mavjud bo'lmasa yoki faoliyat yuritmasa, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi jamiyatga nisbatan ogohlantirish, jarima yoki hatto faoliyatini cheklash kabi choralarni qo'llashi mumkin. Dunyo amaliyotida aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimida direktorlar kengashi turli modellarga

asoslanadi. Asosan ikki xil boshqaruv tizimi mavjud: monistik (bir palatali) va dualist (ikki palatali) model. Anglo-sakson davlatlarida, xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliyada monistik model keng tarqalgan. Bu tizimda yagona boshqaruv organi – Board of Directors faoliyat yuritadi. U o'zida ham ijro, ham nazorat vakolatlarini mujassamlashtiradi. Mustaqil direktorlar tarkibning muhim qismini tashkil etib, ular rahbariyat ustidan nazorat olib boradi hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga xizmat qiladi. Masalan, Nyu-York fond birjasi qoidalariga ko'ra, direktorlarning kamida yarmi mustaqil bo'lishi shart. Yevropaning Germaniya, Niderlandiya va Avstriya kabi davlatlarida esa dualistik model qo'llaniladi. Bu tizimda boshqaruv ikki bo'g'indan iborat: Supervisory Board (Kuzatuv kengashi) va Management Board (Ijroiya kengashi). Kuzatuv kengashi strategik qarorlar va nazoratni amalga oshiradi, ijroiya kengashi esa kundalik boshqaruvni olib boradi. Ushbu modelning afzalligi shundaki, nazorat va ijro funksiyalari aniq ajratilgan bo'ladi. Ba'zi davlatlarda, jumladan Fransiya va Italiyada aralash model qo'llaniladi. Bu mamlakatlarda kompaniyalarga o'z ehtiyojidan kelib chiqib, monistik yoki dualistik modeldan birini tanlash imkoniyati beriladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, direktorlar kengashining samarali faoliyati korporativ boshqaruvda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, AQShdagi Enron kompaniyasining 2001-yilda bankrot bo'lishiga kengash nazorat funksiyalarini bajarmagani sabab bo'lgan⁷⁸. Bu voqea natijasida Sarbanes–Oxley qonuni (2002) qabul qilinib, kengashlarga qat'iy moliyaviy va etik talablar belgilandi⁷⁹. Germaniyada Volkswagen kompaniyasi bilan bog'liq “Dieselgate” mojarosi ham dualistik modelda nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi.⁸⁰

Discussion. Tahlil shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashining samarali faoliyati korporativ boshqaruv tizimining barqarorligi va shaffofligini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. O'zbekistonda mazkur tizim huquqiy asosga ega bo'lib, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonun, “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi Qonun hamda “Korporativ boshqaruv kodeksi” asosiy manbalar sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qiluvchi regulyatorlar — Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, Markaziy bank, Fond birjasi, Soliq qo'mitasi va Monopoliyaga qarshi qo'mita — o'zining aniq vakolatlari orqali kuzatuv kengashlari faoliyatini tartibga soladi. Ammo amaliyotda kuzatuv kengashi o'z vazifalarini to'laqonli bajarmaganda, korporativ boshqaruv tamoyillari buzilishi, aksiyadorlar manfaatlari himoyasiz qolishi, moliyaviy hisobotlar sifati pasayishi va investorlar ishonchining yo'qolishi kuzatiladi. Bundan tashqari, regulyator tomonidan ogohlantirish, jarima va hatto jamiyat faoliyatini cheklash kabi choralar qo'llanishi mumkin. Bunday holatlar jamiyatning nafaqat moliyaviy barqarorligiga, balki obro'siga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

⁷⁸ https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B5%D0%BB%D0%BE_Enron

⁷⁹

https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%97%D0%B0%D0%BA%D0%BE%D0%BD_%D0%A1%D0%B0%D1%80%D0%B1%D0%B5%D0%B9%D0%BD%D0%B7%D0%B0_%E2%80%94%D0%9E%D0%BA%D1%81%D0%BB%D0%B8

⁸⁰

https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B8%D0%B7%D0%B5%D0%BB%D1%8C%D0%BD%D1%8B%D0%B9_%D1%81%D0%BA%D0%B0%D0%BD%D0%B4%D0%B0%D0%BB_%D1%81_Volkswagen

Xalqaro tajriba bu masalaning dolzarbligini yanada tasdiqlaydi. Anglo-sakson modelida (AQSh, Buyuk Britaniya) direktorlar kengashi yagona organ sifatida ham nazorat, ham ijro vakolatlarini amalga oshirsa, Yevropa davlatlarida (xususan Germaniya va Niderlandiyada) dualistik model qo'llanilib, kuzatuv kengashi va ijroiya kengashi alohida faoliyat yuritadi. Har ikkala model ham o'ziga xos afzalliklarga ega: birinchisida tezkor qaror qabul qilish imkoniyati mavjud bo'lsa, ikkinchisida nazorat va ijro vakolatlari aniq ajratilgani sababli shaffoflik kuchayadi. Shu bilan birga, Enron (AQSh) va Volkswagen (Germaniya) kabi korporativ inqirozlar shuni ko'rsatadiki, eng ilg'or tizimlarda ham kuzatuv kengashi faoliyati zaiflashsa, katta miqyosdagi moliyaviy va obro' inqirozlari yuzaga kelishi mumkin. Demak, O'zbekistonda ham korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Mustaqil direktorlar sonini ko'paytirish, kuzatuv kengashidagi qo'mitalar faoliyatini kuchaytirish va shaffoflik tamoyillarini amalda qo'llash orqali investorlar ishonchini oshirish mumkin. Shu yo'l bilan aksiyadorlik jamiyatlarining samaradorligini hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Conclusion. Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi korporativ boshqaruv tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. U aksiyadorlarning manfaatlarini ifodalash, nazorat va muvozanatni ta'minlash hamda jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston qonunchiligi kuzatuv kengashining mavjudligini majburiy deb belgilagan bo'lsa-da, amaliyotda uning samarali faoliyatini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Kengash o'z vazifasini to'liq bajarmagan taqdirda, korporativ boshqaruv tamoyillari buziladi, aksiyadorlar manfaatlari himoyasiz qoladi, investorlar ishonchi pasayadi va jamiyatning barqaror rivojlanishi xavf ostiga tushadi. Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, monistik yoki dualistik modeldan qat'i nazar, kuzatuv kengashi faoliyatining zaiflashuvi katta moliyaviy va obro' inqirozlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli O'zbekistonda kuzatuv kengashlarida mustaqil direktorlar sonini oshirish, qo'mitalar faoliyatini kuchaytirish va korporativ boshqaruv kodeksini to'liq amaliyotga joriy etish zarur. Umuman olganda, kuzatuv kengashining samarali faoliyati aksiyadorlik jamiyatlarining barqarorligi, shaffofligi va xalqaro investorlarga bo'lgan jozibadorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 1996-yil 26-aprel, № 223-I (yangi tahrir: O'RQ-370, 2014-yil 6-may).

O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-387, 2015-yil 3-iyul.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-580, 2019-yil 5-noyabr.

Enron scandal (2001). Case materials. – U.S. Securities and Exchange Commission.
Sarbanes–Oxley Act (2002). Public Law 107–204, United States.
Monks, R.A.G., & Minow, N. (2011). Corporate Governance. Wiley.
OECD (2015). Principles of Corporate Governance.
IFC (2018). Corporate Governance Handbook.
EBRD (2020). Uzbekistan Country Report.
<https://lex.uz/>
<https://new.openinfo.uz/>